



IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINING AMALDAGI HOLATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE AND TRENDS OF THE MECHANISM FOR ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI) INTO THE ECONOMY

¹**Mamatkulova Nadira
Maxkamovna**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
ORCID: 0000-0003-1401-5142, G-mail: 2025nodi@gmail.com*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarining amaldagi holati va so'nggi yillardagi dinamikasi tahlil qilingan. Maqolada investitsion siyosat mexanizmlarining samaradorligi, yangi islohotlar (soliq imtiyozlari, texnoparklar, xususiylashtirish dasturlari) va ularning xalqaro investorlarga ta'siri ham tahlil etilgan. Yakuniy tavsiyalarda investitsiya muhiti barqarorligini mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va yuqori texnologik sohalarga investitsiyalarni diversifikatsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Eng. - This article analyzes the current state and recent dynamics in attracting foreign direct investment into the economy of Uzbekistan. A notable discrepancy was found between official foreign direct investment inflows and the broader category of "total foreign investments and credits." The paper also evaluates the effectiveness of Uzbekistan's investment policy mechanisms, including tax incentives, free economic zones, and privatization programs. The study concludes with recommendations to strengthen investment climate stability, enhance transparency, and diversify investments into high-technology sectors.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, xalqaro moliyaviy institutlar, soliq va bojxona imtiyozlari, asosiy kapital, maxsus iqtisodiy zonalar.*

❖ *foreign direct investment, investment environment, international financial institutions, tax and customs incentives, fixed capital, special economic zones.*

Kirish.

Iqtisodiy o'sish, texnologik modernizatsiya va eksport salohiyatini oshirish nuqtai nazaridan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida (UNCTAD – United Nations Conference on Trade and Development) va Jahon investitsiyalari bo'yicha hisobotda qayd etilishicha, "2024-yilda global to'g'ridan-to'g'ri

xorijiy investitsiyalar 11 foizga qisqarib, 1,5 trln. AQSh dollarini tashkil qildi" [1]. Bu esa ushbu ko'rsatkichning ketma-ket ikkinchi yil qisqarib borayotganligini anglatadi. Bunga geosiyosiy mojarolar, xalqaro savdo cheklovlarining kuchayishi, iqlim o'zgarishi va ayrim mamlakatlarda inflyasion bosimning kuchayishi sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bunday holat aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning

jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-150-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son “Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari unumdorligini oshirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”, 2025-yil 4-martdagi PF-41-son “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2025-yil 23-iyundagi PF-97-son “Mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari va 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son “O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish yo'lida xalqaro investitsion forumlar tashkil etish va salohiyatli xorijiy investorlar, xalqaro moliyaviy institutlar, dunyoning yetakchi korporatsiyalari va ishbilarmon doiralarga mamlakatning investitsion imkoniyatlarini namoyish qilish, hududlarning investitsiya muhitini yanada yaxshilash va ularning jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarga berilgan moliyaviy imtiyozlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va xususiyatlari, jalb qilish shakllari jahonning nufuzli universitetlari olimlari, xalqaro moliyaviy institutlari tomonidan turlicha talqin qilingan.

Garvard universiteti (AQSh) professori Kennet A.Frutning ilmiy ishlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning xalqaro oqimi tahlil qilingan bo'lib, uning fikricha “to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish aktivlari ustidan korporativ nazoratni qo'lga kiritish yoki kengaytirish bo'yicha transchegaraviy operatsiyalardir” [2]. Haqiqatdan ham xalqaro miqyosda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar investorning boshqa davlatdagi korxona aktivlari ustidan bevosita uzoq muddatli nazoratni nazarda tutadi va xalqaro biznes operatsiyalari sifatida tavsiflanadi.

Kornell universiteti (AQSh) professorlari A.Razin va E.Sadka tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra, xorijiy investitsiyalarning ikki shakli mavjud bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri va portfel xorijiy investitsiyalardir. “To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshiruvchi investorlar boshqa mamlakatdagi mahalliy kompaniyalar boshqaruvi ustidan yuqori darajadagi nazoratni amalga oshiradi va bu loyihalarning samarali boshqaruvi hamda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi” [3]. Bunda “aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) yoki ustav fondining (ustav kapitalining) kamida 50 foizini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etishi kerak”. Albatta, 50 foiz va undan yuqori mulk ulushining mavjudligi nazoratning eng muhim jihati bo'lib, nazorat va qiymat o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Ammo, shuni ham ta'kidlash kerakki, yirik aksiyadorlar ko'plab holatlarda 50 foizdan ancha kam ulush bilan ham samarali nazoratni qo'lga kiritishlari mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari iqtisodchi-olimlari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmuniga berilgan ta'riflarda ham korxona ustidan nazorat o'rnatish va foyda olish maqsadida bir iqtisodiyot kapitalining o'zga iqtisodiyotga joylashtirilishi markaziy o'rinni egallaydi. Masalan, iqtisodchi-olimlardan

A.Alekseyev, A.Baranov va N.Dementyevlarning monografiyasida “to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bevosita yoki bilvosita tarzda bir mamlakatdan boshqa mamlakatga kiritilayotgan kapital ustidan nazorat o‘rnatish yoki sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lish” tarzida ifodalangan [4]. Ularning qayd etishicha, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar oqimini ta‘minlaydi, balki ishlab chiqarish va boshqaruv sohasida yangi texnologiyalar va bilimlarga ega bo‘ladilar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar odatda uzoq muddatga amalga oshiriladi, bu esa oluvchi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investorlar ko‘pincha o‘z tovarlari uchun rivojlangan bozorlarga ega yirik transmilliy korporatsiyalar bo‘lib, ularning homiyligida xalqaro tovar bozorlariga chiqish osonroq bo‘ladi.

G.Oksyutikning fikricha, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uzoq muddatli daromad olish uchun chet elga kapital qo‘yishdir. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investor o‘z kapitali qo‘yilgan obyektni (korxonani) egasi yoki uni nazorat qiladi” [5].

U.Nadirxanovning shu mavzuga bag‘ishlangan monografiyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mazmuni va mohiyati bo‘yicha nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan. Uning fikricha, “xorijiy ishtirokchining korxonaga qo‘shgan hissasining miqdori, uning quyi yoki yuqori chegarasi o‘z-o‘zidan chet el investitsiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar sifatida tavsiflash uchun asos bo‘lmaydi, bundan tashqari, bir qator boshqa o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar boshqaruv huquqini qo‘lga kiritish, uzoq muddatli investitsiyalash va faoliyatni nazorat qilishdan iborat” [6].

O‘zbekiston qonunchiligida “chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz,

tavakkalchilik sharoitlarida o‘z mablag‘lari yoki qarz mablag‘lari hisobidan investitsiyalari – to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari” tarzida ifodalangan [7].

Yuqorida berilgan ta‘riflarni tahlil qilish asosida bir necha muhim xulosalarga kelish mumkin: uzoq muddatli o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta‘minlash va ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish maqsadida bir mamlakatdan o‘zga mamlakatga yo‘naltirilgan moddiy va nomoddiy resurslar; bir mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakatdagi (qabul qiluvchi mamlakat) kompaniyaning aktivlarga egalik qilish va ishlab chiqarish hamda boshqa faoliyatlarini nazorat qilish hamda foyda olish maqsadida joylashtirilgan investitsiyalar; korxona boshqaruvini samarali tashkil etishni maqsad qilgan investorning iqtisodiyotidan boshqa iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxona ustidan nazoratni amalga oshirish, foyda olish va samaraga erishish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalar; to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investorlarning ulushi qancha va nimalardan iborat bo‘lishi kerakligi bo‘yicha hanuzgacha yagona yondashuv mavjud emas; xorijiy investorlarning hech qanday kafolatlarisiz va risklarni o‘z zimmalariga olgan holda o‘zga mamlakatga kiritadigan investitsiyalari va shu kabilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlashtirish, o‘zaro va qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy matematik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida: xorijiy investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari yaratilgan; xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to‘g‘risida xabardor qilish; kimyo va neft-gaz sanoati, mashinasozlik sohasidagi

xo'jalik yurituvchi subyektlar, bank-sug'urta tashkilotlari ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish; salohiyatli investorlar uchun tayyor investitsiya takliflarini ishlab chiqish; xalqaro investitsiya va biznes forumlar, taqdimotlar ("Road Show") o'tkazish va marketing kompaniyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish; davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada, 2020-2024-yillar davomida YaIM hajmi qariyb ikki barobarga oshgan bir paytda milliy iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi qariyb 4 barobarga oshgan va 2024-yilda 34,9 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan. Tahlil qilingan davr oralig'ida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 1,8 barobarga va to'g'ridan-to'g'ri sof xorijiy (faqat valyuta shaklidagi pul

mablag'lari) investitsiyalar qariyb 2,3 barobarga oshgan (1-jadval). Chet el investitsiyalari va kreditlari hajmida o'sishga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi o'sishi biroz sust bo'lganligini ko'rish mumkin.

Eng muhimi, 2020-2024-yillar mobaynida jalb qilingan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning o'rtacha 72,8 foizini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etgan. "2025-yilning birinchi yarmida O'zbekistonga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 12,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Bu 2024-yilning shu davriga nisbatan 28 foizga ko'proqdir" [8]. Investorlar, asosan, energetika, sanoat, farmasevtika, agrosanoat majmuasi va axborot texnologiyalariga investitsiya kiritmoqda.

1-jadval

2020-2024-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi (mlrd. AQSh dollari hisobida)

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
<i>YaIM hajmi (yillik o'rtacha rasmiy kurs bo'yicha)</i>	60,2	69,2	81,1	90,9	114,9
<i>Xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i>	8,6	9,8	10,2	16,0	34,9
<i>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	6,6	8,6	9,5	11,6	11,9
<i>To'g'ridan-to'g'ri sof xorijiy investitsiyalar</i>	1,70	2,30	3,19	3,41	3,87

Shuni alohida qayd etish zarurki, global iqtisodiy inqirozning keskinlashuvi va moliyaviy resurslar taqchilligi, tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdoning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi natijasida jahon YaIMning o'sish sur'atlarining ketma-ket uchinchi yil pasayib borayotgani hamda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimida ham pasayish tendensiyasi kuzatilayotgan bir sharoitda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan to'g'ri-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi mamlakatda investitsiya

muhitining yanada yaxshilanib borayotganligidan dalolatdir. Xususan:

- xorijiy investorlarga dividend solig'idan imtiyozlar berildi;
- xususiylashtirish jarayonining huquqiy asoslari mustahkamlanib, xususiylashtirish dasturlari ko'lami kengaytirildi;
- tadbirkorlar barqarorligi reytingi joriy qilindi;
- sanoat zonalarini infratuzilmasini rivojlantirish, investorlarga yerlarni ajratishning shaffof tizimi joriy qilindi – ya'ni, auksion savdo tizimi yo'lga qo'yildi;
- Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish doirasida qonunchilikni uyg'unlashtirishga

qaratilgan 60 dan ortiq normativ hujjatlar qabul qilindi;

– sanoat zonalari infratuzilmasini budjet mablag'lari hisobidan rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda va sanoat zonalari tizimida mutlaqo yangicha yondashuvlarning joriy etilishi yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarga yanada qulay sharoitlar yaratmoqda, ya'ni maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatlari bo'yicha cheklovlar ham bekor qilindi, xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijaraga berish muddati 25 yildan 49 yilgacha uzaytiriladi;

– Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilib, 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiya ishlab chiqildi;

– nizolarni adolatli hal etish maqsadida Toshkent xalqaro arbitraj markazi muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlarni jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida, asosan, fiskal va tashkiliy usullardan foydalanadi. Bunda soliq va bojxona imtiyozlari muhim o'rin egallaydi (2-jadval).

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha fiskal va tashkiliy usullar ushbu turdagi investitsiyalar oqimini faollashtirib, YaIM hajmini o'sishiga turtki beradi va iqtisodiyotda katalizator vazifasini bajaradi. Chunki investitsiyalar YaIMning eng muhim o'zgaruvchan komponenti bo'lib, uni taxmin qilish ancha murakkab, sababi xorijiy investitsiyalar oqimi ma'lum bir davr oralig'ida birdan ko'payishi yoki sezilarli darajada pasayib ketishi ham mumkin.

2-jadval

Milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning fiskal va tashkiliy usullari [9]

Imtiyozlar turi	Alohida shartlari
Soliq bo'yicha imtiyozlar	Imtiyozlardan foydalanuvchilar: to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar. Imtiyozlarni qo'llash shartlari: yuridik shaxslar qonunchilikda belgilanadigan hududlarga joylashtirilganda; chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda; yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) chet ellik ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foiz, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa kamida 15 foiz bo'lganda; chet el investitsiyalari erkin ayirboshlanadigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda; soliq imtiyozlari berilganligi natijasida ularning qo'llanilishi muddati mobaynida olingan daromadlarning kamida 50 foizi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida reinvestitsiyaga yo'naltirilganda. Investitsiyalar hajmiga bog'liq ravishdagi imtiyozlar: to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlari 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga; 3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga; 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari.
Bojxona bo'yicha imtiyozlar	Bojxona bo'jidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga beriladi: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSh dollari ekvivalentidan ortiq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani amalga oshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, bosharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish mahsuloti bo'lsa; Ustav fondida (ustav kapitalida) chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil davomida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka.
Maxsus iqtisodiy zonalar bo'yicha imtiyozlar	Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari foyda solig'ini to'lashdan o'zi kiritgan investitsiyalar hajmiga qarab: 3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun – 3 yil muddatga; 5 million AQSh dollaridan 15 million AQSh dollarigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun – 5 yil muddatga; 15 million AQSh dollari va undan yuqori miqdordagi investitsiyalar uchun – 10 yil muddatga ozod etiladi. Maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko'rsatish muddatiga oid cheklovlar bekor qilingan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YaIM hajmidagi ulushi 2020-yilda 11,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 1,1 foizli bandga pasayib, 10,4 foizga teng bo'lgan, ya'ni pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bunday holat, birinchidan, O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining talab darajasida emasligini ko'rsatadi va YaIM hajmi o'sishning yuqori sur'atlari (2020-yilgi 101,6 foizdan 2024-yilga kelib 106,5 foizgacha o'sgan) hamda milliy iqtisodiyotning bevosita xorijiy investitsiyalarga o'sib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga muvofiq emas, ikkinchidan, YaIM hajmining o'sish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lganligini bildiradi va ikki muhim jihat bilan xarakterlanadi: YaIM hajmining o'sishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirib, aholining turmush farovonligini yaxshilaydi va O'zbekistonni aholi daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kirish imkonini beradi; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'sish sur'atlarining pasayganligi mamlakatda intensiv ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, raqobatbardoshlikni ta'minlash, eksportni oshirish, yirik sanoat loyihalarini moliyalashtirish, boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish, innovatsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan ijobiy holatni namoyon etmaydi.

Shu munosabat bilan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-martdagi PF-3594-sonli farmonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan va tegishli ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashtirilgan korxonalarga soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda

tutilgan. Jumladan, bunday korxonalar kiritilayotgan investitsiyalar hajmiga muvofiq, yer, mol-mulk va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etilgan (300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga; 3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga; 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga). Biroq, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan mazkur soliq imtiyozlari joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxatiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish yo'nalishi kiritilmagan.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi va mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning geografik joylashuvi va iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay sharoitlarni yaratgan.

O'zbekistonning agrar sektori, nafaqat, mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda, balki aholini ish bilan band etish va eksportda ham muhim rol o'ynaydi. Biroq, qishloq xo'jaligiga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb etish bo'yicha mavjud investitsiya muhitini qoniqarli, deb bo'lmaydi. Buni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlarning qishloq xo'jaligidagi ulushi ham ko'rsatib turibdi. 2024-yilda qishloq xo'jaligiga jalb qilingan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning bor-yo'g'i 6,6 foizi to'g'ri kelgan va bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 3,8 foizli bandga pasaygan (3-jadval).

"2024-yil yakunlariga ko'ra, YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 46,2 foizdan 47,4 foizga, sanoatning ulushi 25,3 foizdan 26,4 foizga oshgan bir paytda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 21,2 foizdan 19,2 foizga kamaygan" [10], shu bilan birga YaIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ini xissasi sezilarsiz darajada (0,6 foizli band) qolmoqda.

Qolaversa, qishloq xo'jaligida yaqin istiqbolda suv tanqisligi muammolari va suv tejovchi texnologiyalarni qo'llashning zarurligi kabi dolzarb masalalar ushbu sohaga to'g'ridan-

to'g'ri xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishini taqozo etadi.

3-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi (jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida)*

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021- y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Ishlab chiqarish sanoati	42,1	37,5	42,5	38	29,3
Elektr, gaz bilan ta'minlash	8,3	12,1	14,1	19,8	13,9
Tog'-kon sanoati	18,2	14,2	9,8	14,9	12,9
Qishloq xo'jaligi	10,4	9,7	6,8	5,4	6,6
Tashish va saqlash	2,3	6	6,5	5,4	5,7
Qurilish	4,8	4,6	3,3	2,6	5,5
Sog'liqni saqlash	2	4,1	3,1	1,9	2,6
Suv va kanalizatsiya bilan ta'minlash	1,3	1,4	1,9	1,8	2,4
Axborot va aloqa	2,3	2	1,3	2,4	2,5
Boshqa faoliyat turlari	8,3	8,4	10,7	7,8	18,6
Jami	100	100	100	100	100

*O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining tegishli yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-martdagi PF-3594-sonli farmonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan korxonalarga soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashda hududiy cheklov mavjud. Jumladan, soliq imtiyozlari Toshkent shahri va Toshkent viloyatining 1-5 toifadagi tuman va shaharlariga tatbiq etilmaydi. Bunday cheklovlar mamlakat hududlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq emas. Toshkent viloyati tuman va shaharlar soni bo'yicha respublikada birinchi o'rinda turadi. "Toshkent viloyatida yer va suv mo'l, lekin 1 gektardan o'rtacha daromad boshqa viloyatlarga nisbatan kam. Suv tejovchi texnologiya bo'yicha Toshkent viloyati eng oxirgi o'rinlarda. Toshkent viloyati kichik biznes orqali aholini ishli qilish bo'yicha respublikada eng oxirgi o'rinda. Yil yakunigacha xorijiy investitsiyalar hajmini 2 milliard dollarga va eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish, 661 ta loyihani yakunlab, 30 ming yangi ish o'rni yaratish mumkin" [11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Toshkent viloyatida qo'shimcha imkoniyatlarni ishga solish, ish o'rni va investitsiyani ko'paytirish masalalari bo'yicha yig'ilishda "viloyat imkoniyatlari to'la ishga solinmayotganligi, qayta ishlash darajasi juda pastligi, oziq-ovqat xavfsizligi, meva-sabzavotlar eksporti ham imkoniyatga yarasha emasligi, investitsiyaviy loyihalar uchun toifasi o'zgartirilgan 9 ming gektar yerning 2 ming gektaridan foydalanilmayotganligi, bo'sh turgan davlat inshootlari ham borligi" [12] alohida qayd etildi. Eng muhimi, "viloyatga kelgusi yil 5 milliard dollar investitsiya jalb etish hamda eksportni 2 milliard dollarga yetkazish" vazifasi belgilandi hamda sanoat va xizmatlar nisbatan orqada bo'lgan Oqqo'rg'on, Bekobod, Bo'ka, Parkent, Piskent, Quyi Chirchiq va Chinozda qo'shimcha loyihalar qilib, ish o'rinlari ochish zarurligi" [13] ta'kidlandi.

2024-yilda Toshkent viloyatiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 18647,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2020-yilga nisbatan 4,1 barobarga oshgan. Bunda yirik sanoat ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan Angren, Chirchiq va

Olmalik shaharlari hamda Ohangaron, Zangiota, Yangiyo'l va Yuqorichirchiq tumanlariga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhim omil bo'lgan. Jumladan, 2024-yilda viloyatga jalb qilingan jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 19,1 foizi Yuqorichirchiq tumaniga, 10,5 Ohangaron tumaniga, 15,6 foizi Angren shahriga hamda 7,9 foizi Chirchiq shahriga to'g'ri kelgan. Aksincha, 2024-yilda Bekobod va Parkent tumanlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar umuman jalb qilinmagan.

Ayrim hududlarga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada bo'lib, bu holat ushbu hududlarning mas'ul vakillari tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha

sustkashlikka yo'l qo'yilganligini hamda hududlarning investitsion salohiyatidan unumli foydalanilmayotganligini ko'rsatadi. Masalan, 2024-yilda viloyatga jalb qilingan jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarda quyidagi shahar va tumanlarning ulushi juda past ko'rsatkichlarni qayd etgan: Nurafshon shahri (1,3 foiz), Yangiyo'l shahri (1,4 foiz), Bo'stonliq tumani (1,1 foiz), Qibray tumani (1,5 foiz), O'rta Chirchiq tumani (1,2 foiz), Yangiyo'l tumani (2,1 foiz), Bo'ka tumani (2,7 foiz). Bu esa viloyatga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning nomutanosibligini ko'rsatadi va viloyatdagi shahar va tumanlarni muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nuqtai nazaridan salbiy holatdir (4-jadval).

4-jadval

2020-2024-yillar davomida Toshkent viloyatiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi va dinamikasi (mlrd. so'mda)*

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Viloyat bo'yicha jami	4539,8	6537,1	3981,1	6080,4	18647,4
shaharlar:					
Nurafshon	338,6	196,3	60,8	221,2	240,1
Olmalik	23,7	60,6	58,8	82,3	793,4
Angren	250,2	371,2	154,0	657,9	2902,1
Bekobod	121,2	125,0	67,3	179,1	685,1
Ohangaron	805,0	216,9	94,4	217,0	663,2
Chirchiq	106,1	98,0	235,4	571,0	1468,8
Yangiyo'l	67,2	47,5	17,7	51,0	258,0
tumanlar:					
Oqqo'rg'on	487,0	21,3	0,0	0,0	887,0
Ohangaron	512,4	297,2	1188,9	1790,1	1960,8
Bekobod	130,7	40,5	34,7	0,0	0,0
Bo'stonliq	105,2	251,6	50,2	85,7	202,9
Bo'ka	160,3	34,3	5,5	97,6	508,1
Quyichirchiq	164,9	346,0	28,7	228,6	649,8
Zangiota	140,3	125,6	166,5	321,1	823,1
Yuqorichirchiq	124,1	38,4	72,5	968,0	3561,5
Qibray	154,0	3688,5	1348,5	90,3	285,7
Parkent	29,6	3,4	0,6	3,3	0,0
Piskent	21,0	50,7	7,0	17,5	768,3
O'rta Chirchiq	250,4	170,8	89,7	102,4	221,6
Chinoz	198,7	63,0	0,1	26,8	910,1
Yangiyo'l	224,9	229,9	289,3	312,7	396,0
Toshkent	124,2	60,4	10,5	56,8	461,8

*O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2020-2024-yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bekobod tumaniga so'nggi ikki yil davomida xorijiy investitsiyalar umuman jalb qilinmagan bo'lsa, Bo'ka va Piskent tumanlariga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarsiz darajada qolmoqda.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi tahlillaridan kelib chiqib, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun berilgan soliq imtiyozlari (jalb qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlari bo'yicha 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga; 3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga va 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etish) joriy etilgan iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxatiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish yo'nalishini ham kiritish maqsadga muvofiq.

2020-2024-yillar davomida Toshkent viloyatiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tahlillariga asoslanib, Toshkent viloyatining investitsion salohiyatidan samarali foydalanish va hududga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish, ayniqsa, xorijiy investitsiyalar umuman jalb qilinmagan yoki jalb qilish ko'rsatkichi juda past darajada bo'lgan

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish maqsadida soliq imtiyozlarini joriy qilish o'rinlidir. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun berilgan soliq imtiyozlarini (jalb qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlari bo'yicha 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga; 3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga va 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etish) Toshkent viloyatidagi 4 va 5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlariga ham tatbiq etish zarur.

Xalqaro tajribalarga asoslanib, bevosita xorijiy investitsiyalarning Yangi O'zbekiston uchun ahamiyati, avvalo, mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, asosiy kapitalni yangilash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda intensivlikni ta'minlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish, bozorlarni kengaytirish va eksport hajmini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratishda namoyon bo'ladi. Bevosita xorijiy investitsiyalar esa asosiy kapitalni moliyalashtirishning davlat uchun muhim bo'lgan (davlat kafolati talab qilinmasligi va to'ppa-to'g'ri kirib kelishi) manbasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *World Investment Report 2025: International investment in the digital economy. UN Trade and Development (UNCTAD). World Investment Report 2025.* <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025>
2. Kenneth A. *Foreign direct investment. USA.: University of Chicago Press, 2008. – 312 p.*
3. Assaf Razin, Efraim Sadka. *Foreign Direct Investment: Analysis of Aggregate Flows. Princeton University Press. All Rights Reserved. 2016. - 160 p.*
4. Алексеев А.В., Баранов А.О., Дементьев Н.П. и др. *Инвестиционный процесс и структурная трансформация российской экономики. Монография. - Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2020. - 402 с.*
5. Оксюттик Г.П. *Иностранные инвестиции в России: монография. - СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. - 220 с.*

6. Надырханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. Монография. - Т.: Fan va texnologiya, 2011. - 184 с.
7. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
8. Uzbekistan привлёк рекорд \$12,3 млрд инвестиций в 2025 году. <https://4ir4ik.uz>
9. Muallif tomonidan tuzilgan. Jadval quyidagi qonun hujjatlari asosida tayyorlangan: 30.12.2019. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi; PF-3594-son 11.04.2005. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida; 20.01.2016. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi; PF-41-son 04.03.2025. Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish. 2024-yil (dastlabki ma'lumotlar). https://stat.uz/img/01-vvp_press-reliz-2024_uzb_p61471.pdf
11. Toshkent viloyatining rivoji va kelgusi vazifalar tahlil qilindi. <https://president.uz/oz/lists/view/7618>
12. Toshkent viloyatiga 2025-yili 5 mlrd. dollar investitsiya jalb etilishi rejalashtirilmoqda. <https://daryo.uz/2024/12/10/toshkent-viloyatiga-2025-yili-5-mlrd-dollar-investitsiya-jalb-etilishi-rejalashtirilmoqda/>
13. 2025-yilda Toshkent viloyatidagi kambag'allik darajasini 7,2 foizdan 4 foizga kamaytirish rejalashtirilmoqda. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/12/10/tashkent-region/>